

ESHMUROD OXUND ALAVIY – TARIXIY ASARLAR MUALLIFI

*Oltnoy Rahimova, Urganch innovatsion universiteti mustaqil
tadqiqotchisi*

ESHMUROD OKUND ALAVI - AUTHOR OF HISTORICAL WORKS

*Altinoy Rahimova, Independent researcher of Urganch
Innovation University*

ЭШМУРОД ОКУНД АЛАВИ – АВТОР ИСТОРИЧЕСКИХ ТРУДОВ

*Алтиной Рахимова, независимый исследователь
Ургенчского инновационного университета*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xiva xonligi qo'ng'irotlar sulolasi tarixnavisligida muhim o'rin tutgan Eshmurod ibn Odina Muhammad al-Alaviyning tarixnavis sifatidagi o'rni va mazkur asarlarning lingvistik jihatlarini haqida, "Jamshidiy tavoyifi fathi" asari leksik tahlil qilish borasida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: tarixiy asar, tarixiy asar leksikasi, tarixiy leksika, solnoma, muarrix, tarixnavislik.

Abstract: This article discusses the role of Ashmurad ibn Odina Muhammad al-Alavi, who played an important role in the historiography of the Khanate of Khiva, as a historian, the linguistic aspects of these works, and the lexical analysis of the work "The Conquest of Jamshidi Tawaifi".

Keywords: historical work, lexicon of historical work, historical lexicon, chronicle, historian, historiography.

Аннотация: В данной статье рассматривается роль Эшмурада ибн Одины Мухаммада аль-Алави, сыгравшего важную роль в историографии Хивинского ханства, как историка, лингвистические аспекты этих произведений, а также лексический анализ произведения «Завоевание Джамшиди Таваифи».

Ключевые слова: историческое произведение, лексика исторического произведения, исторический лексикон, хроника, историк, историография.

KIRISH. Eshmurod ibn Odina Muhammad al-Alaviy haqida mavjud mufassal ma'lumotlarni N.Toshev ishlaridan olamiz. Olim, shoir va muarrix bo'lgan bu insonning nomi va lavozimlari (*al-Alaviy, maxdum, mulla, domullo, oxund*) ulamolar sulolasiga mansub bo'lganini, shahzoda Rahimquli vasfidagi qasidasi maqtasidan uning Murodiy taxallusi bilan she'rlar yozgani ma'lum bo'ladi. Lekin uni "adash"i To'ramurod to'ra Murodiy¹ [1] bilan yanglishtirmaslik kerak.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD.

Eshmurod oxund Alaviyning muarrix sifatida dastlab ikki muhim asar yozgan:

1. "Tarixi Sayyid Muhammadxoniy".

Eshmurod oxund 1278//1861-62 yillarda mudarrislik lavozimiga tayinlangan va unga xon ajdodlari tarixini yozish, voqealarni 1861-62-yillargacha yetkazishni topshiradi. Sayyid Muhammadxon buyrug'i bilan yozilgan bu asar mazkur xon hukmronligi davridan boshlanadi. Asarning ma'lum



<https://orcid.org/0009-0003-4817-312X>

e-mail:

altinrahimova@gmail.com

¹ Дўстова С.С. Лаффасийнинг "Тазкираи шуаро" асари ва унинг қиёсий-матний тадқиқи [Матн]: Монография / – Тошкент: Bookmany Print, 2023. – 128 б.

bo'lgan yagona qo'lyozmasi Rossiya Fanlar akademiyasi qoshidagi Sankt-Peterburg Sharq qo'lyozmalari institutida saqlanadi ² [2]. U 1279//1862-63-yillarda ko'chirilgan.

2. "Tarixchayi Muhammad Ya'qubxoja". Ushbu asar 1280//1864-65-yillarda Sayyid Muhammadxon buyrug'iga ko'ra uning xonlik tarixini aks ettiradi. Asarning o'zida muallif ismi va asar nomi uchramasa ham, unda Sayyid Muhammadxonning buyrug'i bilan "Tarixi Sayyid Muhammadxoniy" asari zikr etilishi bilan aniqlaymiz ³ [3]. Asarga "Tarixchayi Muhammad Ya'qubxoja" nomi o'quvchilardan biri tomonidan berilgan bo'lib, keyinchalik ilm ahli o'rtasida ommalashgan. Haqiqatan, asarning o'zida "...siyodat unvonig'a debocha – donishnishon Muhammad Ya'qubxoja devon bu duogo'y baytulehzonig'a qudumi masarratluzumi bila sharofat yetkurub,..." (2^b) deyiladi⁴[4].

Eshmurod oxund Alaviy Shermuhammad Munis va Muhammad Rizo Ogahiyga zamondosh inson ekani, saroyda muhim madaniy va siyosiy mavqega ega bo'lgani ayon. Uning muarrix sifatida o'ziga xos uslubi, o'ziga yarasha solnomanavislik yo'li bo'lganini ko'rsatish maqsadida N.Toshev muayyan bir voqeani ikki asar: Eshmurod oxund Alaviyning "Jamshidiy tavoyifi fathi" va Muhammad Rizo Ogahiyning "Zubdatu-t-tavorix"ida berilishini solishtiradi.

Eshmurod oxund Al-Alaviyning "Jamshidiy tavoyifi fathi" asarida: "Va hamul kunda ixloshon Mirzoxon xalifani Hirot xoni shoh Komrong'akim, bu davlatxonaning qadimiy do'stidur, elchi yo'sunida muhabbatnomalarni topshurub yibordilar".

Muhammad Rizo Ogahiyning "Zubdatu-t-tavorix" asarida: "Va hamul kun ixloshon xizmatkorlardin Mirzoxon xalifani Hirot viloyatining voliyi voloshoni shoh Komrong'akim, bu xonadoni izzatmakonning qadimiy

ixloskeshlaridin erdi, elchilik yo'sunida inoyatnoma topshurub, irsol etti".

Shuningdek, Eshmurod oxund Al-Alaviyning "Jamshidiy tavoyifi fathi" asarida: "Yo'l asnosida Bayramlixonning xarob bo'lg'an qal'asin tamosho qilib, Sulton qal'asi maxozisidin ubur etib, Qo'y qal'asi otlig' joyg'akim, qal'ayi mazkuraning janubiy tarafida voqe'dur, nuzul qildilar".

Muhammad Rizo Ogahiyning "Zubdatu-t-tavorix" asarida: "Yo'l asnosida Bayramlixonning qal'asin tamosho qilib, Sulton qal'asi muqobalasidin o'tub, Qo'yun qal'asi otlig' mavze'dakim, mazkur qal'aning janubiy tarafida voqe'dur, borgohi iqbol barpoy qildurub, nuzuli ijlo qo'rguzdi"⁵[5].

Eshmurod oxund Alaviy va Ogahiyning mazkur asarlari haqida H.Nazirova "Ikkala manbani solishtirganda Ogahiy so'zsiz Eshmurod Oxund asaridan foydalangan, ammo uning so'z va iboralarini to'g'ridan to'g'ri ko'chirmasdan, o'z uslubiga moslashtirgan, so'z va qofiyalar o'zgarsada, ma'no jihatdan gapga zarar etkazilmagan. Saroy muarrixi Muhammadrizoga yilnoma bo'lib xizmat qilgan "Jamshidiy tavoyifi fathi" asarida berilgan hech qaysi nazm "Zubdat ut-tavorix"ga kirmagan. Ikkala asar mualliflarining maqsadlari har xil bo'lgan: Eshmurod Oxund asarda yurishning kunlik tarixini batafsil berishga harakat qilgan bo'lsa, Ogahiy rasmiy tarixnavis sifatida nafaqat mazmun-mohiyat, balki asarni nazm va saj' bilan bezashni ham maqsad qilgan"⁶[6] – degan xulosani bayon qiladi.

Eshmurod Oxund Alaviyning "Tarixi Muhammadxoniy" ("Shohnomayi Eshmurod Oxund") nomli tarixiy asari Rossiya Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutining Sankt-Peterburg bo'limi qo'lyozmalar fondida C 573 ashyo raqami ostida saqlanadi. Xuddi shu fondida C 572 ashyo raqami bilan "Shohidu-l-iqbol"ning yagona qo'lyomasi saqlanayotgani mazkur qimmatbaho asar

² تاريخ محمد خانى Россия Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti Sankt-Peterburg b'limi q'ul'ezmalar fondi. C 573.

³ Ish Murād B. Ādinā Muḥammad al-'alavī. Jamshīdī Ṭavāyifi Fathī. Ed. Nuryoghdi Toshev. –Wien: Austrian Academy of Sciences Press, 2018. –P. 11-20.

⁴ تاريخچه محمد يعقوب جواجه روسيا Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti Sankt-Peterburg b'limi q'ul'ezmalar fondi. C 573.2^b.

⁵ Ish Murād B. Ādinā Muḥammad al-'alavī. Jamshīdī Ṭavāyifi Fathī. Ed. Nuryoghdi Toshev. –Wien: Austrian Academy of Sciences Press, 2018. –P. 26.

⁶ Назирова Х. Қўнғиротлар сулоласи тарихнавислигида Муҳаммадризо Огаҳийнинг "Зубдат ут-таворих" асари. Тарих фанлар фал... д-ри дис...автореф. — Тошкент, 2022.– Б. 18.

ham 1873-yilda Xivadan olib ketilgan uch yuz jild kitobning biri ekanini ko'rsatadi.

Muarrixning yana bir tarixiy asari "Jamshidiy tavoyifi fathi" asari sharqshunos N.Toshev tomonidan ilmiy-tanqidiy matn holda nashr qilingan⁷[7] (asar nomi ham N.Toshev tomonidan uning mazmun-mohiyatidagi kelib chiqib, solnoma matni asosida berilgan). H.Nazirova yozishicha, "Eshmurod Oxundning "Jamshidiy tavoyifi fathi" asari to'lig'inchah Rahimqulining Xurosonga besh oylik (1257-yil 6-shavvoldan 1258-yil 28-safarigacha/1841-yil 21-noyabridan to 1842-yil 10-aprelogacha) yurishiga bag'ishlangan. Allohqulixon tomonidan tashkil etilgan harbiy operatsiya Eronga qarshi qaratilgan edi. Rahimqulining inoqlik davridagi bu yurish tafsiloti Ogahiyning "Zubdat ut-tavorix" asarida ham bayon etilgan"⁸[8]. Eshmurod oxund tarixiy asarlarining leksik tarkibi, aniqsa, o'z zamondoshlari Munis va Ogahiy tarixiy asarlari kabi yuksak badiiy vositalar ishlatilgan o'rinlarda bir-biriga juda yaiqnlashadi. Masalan, "Tarixi Muhammadxoniy" "Zihi Sone'kim, qudrati komilasi me'mori masnu'ot kiriyosi fazosin asru vase' va ul fazoda mukavvanot shavohidi jamollarig'a hulli-yu hulal bila oro yetkurub, ul halbalarni muxlatifa javohir bila tarse' etdi va Muftadi'ekim, samovoti badoye'ning muxaddaroti vujuhin savobit-u sayyorot xollari bila murattab va muzayyan va arzi g'abro sabzxlari xadlarining huniny azhor-u ashjor mutalavvana zebi bila mubrahan qildi va ul jumladin inson zumrasin intixob qilib, o'z rahmati va ma'rifatining mazhari, makramat-u ehson manba'ai va masdari etib, ul toifayi mukarramani sho'ba-sho'ba, qabila-qabila etib, har birin bir xizmat adosig'a ixtisos berdi, tokim, o'rtalarida nasablari rishtasi yo'q bo'lmay ibtidodin to intihog'acha kamokona sobit turub, birov-birovlari nasablari imtiyozining hablulmatini hech vajah bila intiqo' topmag'ay..."⁹[9]

MUHOKAMA VA NATIJALAR.

"Jamshidiy tavoyifi fathi" asari leksik tarkibini tahlil qilish uchun, avvalo, asarni o'z zamonida yaratilgan asarlar bilan muqoyasa qilgan holda mutolaa qilish zarur. Shuning uchun biz asar bilan keng

jamoatchilik tanish bo'lmagani bois dastlab undan bir parcha e'lon qilishni lozim topdik.

"1^b Bismillohi-r-rohmani-r-rohim. Jamshidiy tavoyifi fathi. Ta'iydoti rabboniy va taqviyati subhoniyy i'onati bila shahzodayi sipehrmartabati doroshavkatu faridunhashmatu iskandarjohu sulaymonjoygohu nusratpanohu zafarhamrohu nosirul millati va-d-din, mu'inududini-l-matin, boisu-l-amni va-l-amon, shafiqi ahli-l-ymon abulfathi va-z-zafar shahzoda Rahimquli Bahodir Sulton ja'alahullallohu ta'ala muzaffaran va mansuran ila-l-inqirozi-z-zamong'a besu'ubat-u mashaqqat muyassar bo'lg'anining zikri.

Hazrati podshohi anjumsipoh, qiblalu-l-xavoqinu-l-muazzam, ka'batu-s-salotini-l-mukarram 2^a iskandarnishon-u faridunmakon, dorodarbon-u sulaymonjoh-u jamshiddastgoh, nazm:

Qaysi shahkim, shahnshohi davron,
Moliki ins-u jon-u madori jahon.
Shohlar sarvar-u sarafrozi,
Shoh Allohquli Abulg'oz.
Yuz Iskandarcha bor anga chokar,
Chokari har biri chu Iskandar.
Muftaxir qullug'ig'a xoqonlar,
Dargahi qullari kelib xonlar.
Izz-u johi baland aning chun mehr,
Xoki dargohi rafi' sipehr.
Mazhari jud-u masdari ehson,
Yo'qtur ehsonig'a hadd-u poyon.
Shavkati saydi xud jahonni tutub,
Balki bu to'qquz osmonni tutub.
Ne qolib mulki mashriq-u mag'rib,
Ne qolib mulki Abtah-u Yasrib.
Ne Xuroson-u mulki Hindiston,
Ne Iroq-u ne kishvari Eron.
Shohning qullug'ig'a bog'lab bel,
2^b Xizmat amri uchun chu soyir el,
Qahri o'tig'a bersa chunki shamol,
Bilkul o'lg'usi kul jahon filhol.
Qila olmas ul o'tni hech zabun,
G'ayr lutfiki, bergay anga sukun.
Lutfi daryosi gar urar esa mavj,
Hama shodob o'lur haziz ila avj.

⁷ Tsh Murād B. Ādinā Muḥammad al-'alavī. Jamshīdī Ṭavāyīfi Fathī. Ed. Nuryoghdi Toshev. –Wien: Austrian Academy of Sciences Press, 2018.

⁸ Nazirova X. Qўnғиротлар сулоласи тарихнавислигида Мўхаммадризо Огаҳийнинг "Зубдат ут-таворих" асари.

Тарих фанлар фал... д-ри дис...автореф. — Тошкент, 2022.— Б. 17-18.

⁹ تاريخ محمد خانى Россия Фанлар академияси Шарқшунослик институти Санкт-Петербург бўлими қўлғезмалар фонди. С 573. 1^б ва 2^а-варақлар.

Himmati qasri eyladur oliy,
Ko'hi zar anga koh timsoli.
Har qayon davlat ila ozim o'lub,
Fath-u nusrat iki mulozim o'lub.
Ey xudo, shoni qilib masrur,
Doimo et muzaffar-u mansur.
Shohlar o'rtasida mumtoz et,
To qiyomat sar-u sarafroz et.

Chun ul hazratkim, zoti bobarokotlari iymon
ahliga amn-u amon boisidur, xorazmshohlik avrangi
uzra julus 3^a buyurub, o'n yetti yil inqizo topti. Tarixi
hijriy ming taqi ikki yuz ellik yettida sig'ir yilining
nisfi axiri asnosi erdikim, o'z ko'zlarining nuri,
ko'ngullarining sururi, shijoatpanoh, jalodatdastgoh,
xilofat taxtining zeb-u farri, saltanat tojining oliy
gavhari, podshohlik sipehrining mehri toboni,
shahanshohlik bahring durri duraxshoni, **nazm:**

Oftobi falaki davlat-u din,
Mohtobi ufqi joh-u jalol,
Ma'dalat qasri topib andin bud,
Makramat masnadi ham zeb-u jamol.
Durri yakdonayi durji shavkat,
Mahi daraxshandayi burji iqbol.
Xotiri bahri muhiti ehson,
Zarfishonliqda kafi abri navol.
Ma'dani hilm-u viqor-u tamkin,
3^b Markazi doirayi fazl-u kamol.
Quvvati xotiri ahli olam,
Rohati ruhi shahi farruxfol.
Azamat kishvarida chun Jamshid,
Manzilat mulkida dorotimsol.
Sheri ojomi shijoatkim erur,
Chun maral oldida a'do pomol.
Kul bo'lur qahri o'ti ursa alam,
Dahrning xirmani budi filhol.
Obi lutfi anga bergusi sukun,
Yo'qsa past o'lmag'aydur amri mahol.
Adlidin olam aro eyla faroh,
Qo'y qurt hamrahidur farruxfol.
Xalqidin barcha ulus xurram-u shod,
Rofatidin bori olam xushhol,
Bori el vird-u duosi bukim,
Topmag'ay hech xuri umri zavol.
Nama dam fath-u zafar bo'lg'ay yor,
Har qayon qo'ysa yuz ul nekhisol,

No'sh qilg'ay hama dam sofi surur,
4^a Yetmag'ay xotirig'a durdi malol.
To qiyomat anga lutf etgay Haq,
Qadahi aysh-u tarabi molamol,
Dargahi xizmatig'a bog'lar kamar,
Ey Murodiy, sanga yo'q o'zga ma'ol,
surayyomakon, ya'ni shahzoda Rahimquli

Bahodirxon sulton zadaalohu ta'olo yavman
fayavman davlatahu va nusratahu ila-l-inqirozi-z-
zamong'a lashkari zafarasarlari avfrjiddin nech guruhi
nusratpajuhlarin necha sarkardalar bilakim, har biri
shijoat beshasining sheri, muborazat ma'rkasining
dalirdur, qo'shub, Eron va Xuroson a'dosining
muhoraba va muqotalasi uchun buyurub yubordilar...

XULOSA. Ko'rinadiki, Eshmurod oxund
Alaviy tarixiy asarlari Shermuhammad Munis,
Muhammad Rizo Ogahiy, Muhammad Yusuf
Bayoniylar asarlari qatorida o'rganilishi kerak.
Xususan, ularning lingvistik tadqiqi
tilshunosligimizdagi muayyan bo'shliqlarni
to'ldirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Дўстова С.С. Лаффасийнинг “Тазкираи шуаро” асари ва унинг қиёсий-матний тадқиқи [Матн]: Монография / – Тошкент: Bookmanу Print, 2023. – 128 б.
2. تاريخ محمد خانى Россия Фанлар академияси Шарқшунослик институти Санкт-Петербург бўлими қўлэзмалар фонди. С 573.
3. Īsh Murād B. Ādīnā Muḥammad al-‘alavī. Jamshīdī Ṭavāyifī Fathī. Ed. Nuryoghdi Toshev. – Wien: Austrian Academy of Sciences Press, 2018. – P. 11-20.
4. تاريخچه محمد يعقوب جواجه Россия Фанлар академияси Шарқшунослик институти Санкт-Петербург бўлими қўлэзмалар фонди. С 573.2^б в.
5. Īsh Murād B. Ādīnā Muḥammad al-‘alavī. Jamshīdī Ṭavāyifī Fathī. Ed. Nuryoghdi Toshev. – Wien: Austrian Academy of Sciences Press, 2018. – P. 26.
6. Назирова Х. Қўнғиротлар сулоласи тарихнавислигида Муҳаммадризо Огахийнинг “Зубдат ут-таворих” асари. Тарих фанлар фал... д-ри дис...автореф. — Тошкент, 2022.– Б. 18.